



TOGʻ-KON SANOATI, GEOLOGIYA VA MINERAL  
RESURSLAR SOHALARIDA KASBIY  
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BOʻYICHA  
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**KON SANOATIDA YORDAMCHI  
ISHCHILAR**



“Kon sanoatida yordamchi ishchilar” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Tog‘-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

© Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti,  
Tog‘-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar  
sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish  
bo‘yicha tarmoq kengashi, 2026.

# KASBIY STANDART

## Kon sanoatida yordamchi ishchilar

---

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0024



### I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: ushbu kasbiy standart "Geologik ishlarda kon ishchisi", "Marksheyderlik ishlarida kon ishchisi", "Tozalash zaboyi kon ishchisi", "Yer osti (yer usti ishlar) kon ishchisi" va "Tog'-kon jihozlarini ta'mirlovchi elektrchilangar" kasblari uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

burg'ilash qurilmasi – yer osti qatlamlarini o'rganish yoki neft – gaz quduqlarini ochish uchun ishlatiladigan katta burg'ilash uskunasi;

burg'ilanuvchanlik – tog' jinrlarini burg'ilab buzishga ko'rsatadigan qarshiligi, sinovchi standart sharoitdagi sof burg'ilash tezligi bilan xarakterlanadi;

burg'ilash-portlatish ishlari – burg'ilash va portlatish ishlarida bajariladigan texnologik operatsiyalar yig'indisi;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

foydali qazilma koni – yer ostida foydali minerallarni va birikmalarni tabiiy to'plangan joy;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qoʻyiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni oʻz ichiga olgan muayyan kasb toʻgʻrisidagi tizimlashtirilgan maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini oʻz ichiga olgan tizimlashtirilgan roʻyxat;

koʻnikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

konveyer – yuklarni uzluksiz va avtomatik tarzda bir joydan boshqa joyga tashish uchun moʻljallangan mexanik transport tizimi;

koronka – burgʻilash vaqtida teshik ochish uchun ishlatiladigan maxsus kesuvchi asbob;

kvalitet – mahsulot yoki ish sifatining darajasi, bajarilgan ishning sifat koʻrsatkichi;

lebyodka (chigʻir) – yuk va odamlarni koʻtarish-tushirishda ishlatiladigan mexanik qurilma;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan oʻzaro taʼsirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

norasmiy taʼlim – taʼlim xizmatlari taqdim etilishini taʼminlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yoʻnaltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida oʻqitishdagi rasmiy taʼlimga qoʻshimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

portlovchi materiallar – portlovchi moddalar va portlatish vositalari hamda oraliq detonatorlar toʻplamiga aytiladi;

qavat balandligi – u qazib olinayotgan asosiy gorizont bilan yuqorigi qavat oraligʻini tik yuzaga tushgan proyeksiyalari oraligʻidagi masofa bilan oʻlchanadi;

quduq (skvajina) – burgʻilash dastgohi yordamida hosil qilingan diametri 75 mm dan katta, chuqurligi 5 m dan ortiq boʻlgan sunʼiy chuqurlik;

rasmiy taʼlim – davlat taʼlim tashkilotlari va davlat tomonidan tan olingan nodavlat taʼlim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan, aniq maqsadga yoʻnaltirilgan va rejali taʼlim;

ruda massasi – aralash jinslar bilan yuzaga chiqadigan ruda;

rudasiz (puch) jinslar – tarkibida metall (foydali mineral) boʻlmagan, qayta ishlash uchun yaroqsiz jinslar;

rudnik – maxsus hujjat bilan ajratilgan yer usti va yer osti maydoni boʻlib u joydagi konni ishlatuvchi konchilik korxonasi tarkibida bitta yoki bir necha ishlab

chiqarish birligi (shaxtalar, shtolnyalar, karyerlar va yordamchi – xizmat ko'rsatuvchi), sexlardan iborat konchilik korxonasi;

shaxsiy himoya vositalari (SHHV) – bu ishlab chiqarish jarayonida inson organizmiga ta'sir qiluvchi xavfli va zararli omillarning ta'sirini oldini olish yoki ularni minimal darajaga tushirish uchun ishchi tomonidan shaxsiy tarzda qo'llaniladigan maxsus texnik vositalar, kiyimlar va qurilmalar majmuasidir;

shaxta – konchilik korxonasining mustaqil ishlab chiqarish birligi bo'lib, yer osti usulida foydali qazilmalarni, unga ajratilgan yer maydoni yoki uning bir qismida qazib olish ishlarini amalga oshish;

shpur – tog' jinslarida yoki betonda, g'ishtli devorlarda burg'ilovchi bolg'a yoki parmalar yordamida burg'ilab hosil qilingan silindrsimon, diametri 75 mm gacha va chuqurligi 5 m gacha bo'lgan sun'iy chuqurlik;

tog' jinslari massivi – tog' jinslarining ma'lum uchastkasidagi uning tabiiy holati;

tog' kompassi – geologlar va tog'-kon mutaxassislari foydalanadigan maxsus kompas bo'lib, u qatlamlarning yotish burchagi, yo'nalishi va geografik orientatsiyasini aniqlash uchun ishlatiladi;

vagonetka – bu yer osti kon ishlarida hamda karyerlarda qazib olingan ruda, tosh, ko'mir va boshqa yuklarni tashish uchun ishlatiladigan kichik (0,5–3 m<sup>3</sup> hajmli) temir yo'l vagonchasi;

xavfsiz masofa – portlatish ishlari amalga oshirilayotganda kishilarning jarohatlanish va uskunalarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik uchun loyiha yoki burg'ilash-portlatish ishlari pasportida maxsus usulda hisoblangan xavfsiz zona chegaralari ko'rsatiladi;

zaboy – burg'ilash qudug'ining eng chuqur nuqtasi konning tubi(oxiri), burg'ilash asbobi aynan shu yerda tog' jinslarini maydalaydi.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 22-sentabrdagi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi O'RQ-410-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgust "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarori, O'zMSt 640:2025 (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-iyuldagi "O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanilishi taqiqlangan og'ir ishlarning hamda zararli yoki xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarning ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 290-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-oktabrdagi "Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning ro'yxatini hamda ushbu ro'yxatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 637-son qarori;

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025), O'zMSt 641:2025;

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

TMR – Tarmoq malakalar ramkasi

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;

ShHV – shaxsiy himoya vositalari

## II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Kon sanoatida yordamchi ishchilar	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Konchilik jarayonlarining uzluksiz, xavfsiz va texnologik talablarga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida asosiy ishlab chiqarish ishchilarini yordamchi texnik, tashkiliy va xizmat ko'rsatish funksiyalari bilan qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish jarayonidagi yordamchi ishlarni o'z vaqtida, sifatli va xavfsiz bajarish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	B seksiya Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash; 09 Konchilik sanoati sohasidagi texnik xizmatlar; 09.9 Konchilik sanoatining boshqa sohalari va yerosti ishlari uchun texnik ko'mak; 09.90 Konchilik sanoatining boshqa sohalari va yerosti ishlari uchun texnik ko'mak; 09.90.0 Konchilik sanoatining boshqa sohalari va yerosti ishlari uchun texnik ko'mak.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Asosiy konchilik jarayonlarini qo'llab-quvvatlash, uskunalar va ish joylarini tayyorlash, materiallar va jihozlarni yetkazish hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda yordamchi texnik vazifalarni bajarish	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	<b>Kasblar kodi va nomi:</b>	<b>TMR dagi malaka darajasi:</b>
		81119006 Geologik ishlarda kon ishchisi	2
		81119021 Marksheyderlik ishlarida kon ishchisi	2
		81111014 Tozalash zaboyi kon ishchisi	3
		81111015 Yer osti (yer usti ishlar) kon ishchisi	3
		74120978 Tog'-kon jihozlarini ta'mirlovchi elektrchilangar	3

### III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	81119006 Geologik ishlarda kon ishchisi	A1.2	Foydali qazilmalarni qazib olish jarayonida geologik-qidiruv ishlarida yordamchi texnologik jarayonlarni amalga oshirish	A1.01.2	Geologik-qidiruv jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun talab etiladigan dala ishlarini bajarish
				A1.02.2	Geologik ma'lumotlarni yig'ish, qayd etish va dastlabki tahlil ishlarida yordam ko'rsatish
		A2.2	Foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olishga tayyorgarlik va yordamchi ishlarni bajarish	A2.01.2	Ochiq kon maydonini qazib olishga tayyorlash bo'yicha boshlang'ich texnik ishlarni amalga oshirish
				A2.02.2	Ochiq usulda qazib olish jarayonini qo'llab-quvvatlovchi yordamchi texnologik ishlarni bajarish
		A3.2	Foydali qazilmalarni yer osti usulida qazib olishda umumiy kon-tayyorlov ishlarini tashkil etish	A3.01.2	Yer osti kon maydonida tayyorlov va yordamchi texnik jarayonlarni amalga oshirishni tashkil etish
				A3.02.2	Yer osti kon-tayyorlov ishlarida xavfsizlik va texnologik tartibning bajarilishini ta'minlash
2	81119021 Marksheyderlik ishlarida kon ishchisi	B1.2	Qazib olish jarayonida marksheyderlik ishlariga tayyorgarlik ko'rish va yordamchi ishlarni amalga oshirish	B1.01.2	Marksheyderlik ishlariga tayyorgarlik jarayonlarini amalga oshirish
				B1.02.2	Qazib olish jarayonida marksheyderlik bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish
		B2.2	Ochiq konlarda qazib olish jarayoniga xizmat ko'rsatish bo'yicha tayyorgarlik ko'rish va yordamchi ishlarni bajarish	B2.01.2	Ochiq konlarda qazish va qazib olish ishlarida yordamchi ishlarni bajarish
				B2.02.2	Ochiq konlarda qazish va qazib olish ishlarida transport vositalari, texnologik uskunalar va mexanizmlarga xizmat ko'rsatish
		B3.2	Yer osti konlarida qazib olish jarayoniga xizmat ko'rsatish bo'yicha umumiy konni-tayyorlash ishlarini bajarish	B3.01.2	Yer osti konlarida kon yo'laklarini qazish jarayoniga tayyorlash va yordamchi ishlarni amalga oshirish
				B3.02.2	Konlarda yer osti qazib olishda portlash ishlari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish va yordamchi ishlarni bajarish
				B3.03.2	Konlarda yer osti foydali qazilmalarni qazib olishda texnologik uskunalar va mexanizmlarga xizmat ko'rsatish

		B4.2	Qazib olish jarayonida geologik va marksheyderlik nazorat ishlarini amalga oshirish	B4.01.2	Geologik nazorat ishlarini amalga oshirish
				B4.02.2	Marksheyderlik nazorat ishlarini amalga oshirish
3	81111014 Tozalash zaboyi kon ishchisi	D1.3	Zaboyni tayyorlash va qazib olish jarayonlarini amalga oshirish	D1.01.3	Zaboyni ishga tayyor holatga keltirish
				D1.02.3	Qazib olish va tozalash ishlarini texnologik talablarga muvofiq bajarish
		D2.3	Jihaz va asbob-uskunalarining texnik sozligi, tozaligi hamda xavfsiz foydalanilishini ta'minlash	D2.01.3	Uskunalarni muntazam tozalash va ishga yaroqlilik holatini ta'minlash
				D2.02.3	Zaboyda mehnat xavfsizligi, sanitariya- gigiyena va ekologik talablarni bajarilishini ta'minlash
4	81111015 Yer osti (yer usti ishlar) kon ishchisi	E1.3	Yer ostida qazib olish jarayoniga tayyorgarlik ko'rish uchun kon yo'llari va ish joylarini yaratish, mustahkamlash va xavfsiz ishlash sharoitini ta'minlash	E1.01.3	Shaxtalarda kon lahimlarini kovlashda yordamchi operatsiyalarni bajarish
				E1.02.3	Shaxtalarda Burg'ilash-portlatish ishlariga tayyorgarlik ko'rish hamda yordamchi amallarni bajarish
				E1.03.3	Yer osti texnologik uskunalari va mexanizmlariga texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshirish
		E2.3	Foydali qazilmalarni tozalash chuqurida qazib olish hamda qirqma lahimlarni texnologik talablarga muvofiq o'tkazish bo'yicha maxsus qazish ishlarini bajarish	E2.01.3	Qirqma lahimlar va tozalash chuqurlarida texnologik jarayonlar uchun zarur ish joyini shakllantirish
				E2.02.3	Asosiy qazish jarayonlarini texnologik xarita asosida amalga oshirish
		5	74120978 Tog'-kon jihozlarini ta'mirlovchi elektrchilangar	F1.3	Tog'-kon jihozlarining elektr qismlarini tekshirish, ta'mirlash va nazoratini olib borish
F1.02.3	Elektr jihozlarini ta'mirlash va ishlashini nazorat qilish				

#### IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Geologik ishlarda kon ishchisi	
Mashg'ulot nomining kodi:	81119	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba ( ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>18 yoshga to'lganligi;  Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tganligi;  O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik;  Nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish;  Geologik ishlar jarayonida oddiy tayyorlov, yordamchi va bajaruvchi operatsiyalarni to'g'ri, xavfsiz va ketma-ket bajarish;  Berilgan vazifalarni aniq va o'z vaqtida bajarish;  Oddiy mehnat vazifalarini mustaqil bajarish, murakkab ishlarni esa mutaxassis ko'rsatmasi bilan bajarish;  Jamo'a a'zolari bilan hurmat, tartib va mehnat madaniyatiga rioya qilish;  Xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalarni to'liq bajarish hamda shaxsiy muhofaza vositalaridan to'g'ri foydalanish;  Ishga vaqtida kelish, topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarish;  Geologik belgilar, numar kodlari, namuna paketlari bilan ishlashda aniq e'tibor va xatolikka yo'l qo'ymaslik;  Diqqatlilik va kuzatuvchanlik;  Muloqot va jamoaviy hamkorlik;  Tashabbuskorlik va muammolarni hal etish qobiliyati;  Jismoniy bardoshlilik va stressga chidamlilik;  Tizimli va texnik fikrlash</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	umumiy o'rta ta'lim;	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	tayanch o'rta ta'lim + ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	2-razryadli geologik ishlar bo'yicha kon ishchisi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>	<b>Kasbning nomi:</b>
	2	Marksheyderlik ishlarida kon ishchisi
	2	Ochiq kon ishchisi
	3	Yer osti kon ishchisi

Mehnat funksiyalarining tasnifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
<p>A1.2 - Foydali qazilmalarni qazib olish jarayonida geologik-qidiruv ishlarida yordamchi texnologik jarayonlarni amalga oshirish</p>	<p>A1.01.2 - Geologik-qidiruv jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun talab etiladigan dala ishlarini bajarish</p>	<b>O'qitish natijalari</b>
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Geolog tomonidan berilgan topshiriqqa muvofiq dala ish joyini tayyorlash va tartibga keltirish
		2. Belgilangan hududda geologik belgilashlarni ko'rsatma asosida bajarish
		3. Qatlam, kesma yoki quduqlardan namuna olish jarayonida yordamchi operatsiyalarni bajarish
		4. Olingan namunalarni saralash, belgilash va qadoqlashda ishtirok etish
		5. Jihoz va asbob-uskunalarini ish joyiga yetkazish, joylashtirish va sodda sozlashda yordam berish
		6. Dala sharoitida qo'llaniladigan oddiy o'lchov va belgilash asboblarini geolog ko'rsatmasi bilan ishlatish
		7. Ish maydonini nosozlikdan, to'siqlardan tozalash, xavfsiz ish muhitini yaratish
		8. Jarayon yakunida ish joyini tozalash, tartibga keltirish va moddiy vositalarni topshirish
		9. Olingan namunalarni laboratoriyaga yoki omborga yetkazishda ishtirok etish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Dala ishlarida qo'llaniladigan oddiy asbob-uskunalaridan to'g'ri va xavfsiz foydalana olish
		Namunalarni olishda geolog bergan texnik ketma-ketlikka aniq amal qilish
		Dala ishlarida foydalaniladigan geologik belgilash elementlarini to'g'ri o'rnatish va mustahkamlay olish
		Olingan namunalarni saralash, belgilash, paketlash va kamchiliklarsiz topshirish
		Dala ish joyini tartibli va xavfsiz holatda ushlab turish
		Sodda o'lchov ishlarida geolog ko'rsatmasini aniq bajarish
		Jamoda ishlash, ko'rsatmalarni tez va to'g'ri qabul qilish, mehnat intizomiga rioya qilish
		Xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish bo'yicha shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanish
		<b>Bilimlar:</b>
		Geologik-qidiruv dala ishlarining asosiy maqsadi va vazifalari
		Belgilash, kesma tayyorlash, namuna olish jarayonlarining soddalashtirilgan texnologiyasi
Dala sharoitida qo'llaniladigan asbob-uskunalarining nomi, vazifasi va to'g'ri foydalanish qoidalari		
Namunalarni belgilash tartibi		
Dala ishlarida qo'llaniladigan mehnat xavfsizligi qoidalari		

		Geologning ko'rsatmalarini bajarishda ketma-ketlikning ahamiyati va intizomiy talablar
		Hududdagi geologik belgilarning ma'nosi haqida tushunchalar
		Dala jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oddiy nosozlik va xatoliklarni tashxislash va xabar berish tartibi
	A1.02.2 - Geologik ma'lumotlarni yig'ish, qayd etish va dastlabki tahlil ishlarida yordam ko'rsatish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Geolog tomonidan berilgan topshiriqlar asosida dastlabki geologik ma'lumotlarni yig'ishda ishtirok etish
		2. Dala sharoitida qatlam, jins, nuqta va obyektlarga tegishli asosiy kuzatuvlarni qayd etishda yordam berish
		3. Olingan ma'lumotlarni daftar, karta yoki elektron qurilmaga to'g'ri belgilash va yozishda yordam ko'rsatish
		4. Namunalar bo'yicha asosiy ma'lumotlarni ko'rsatma asosida qayd etish
		5. O'lchov asboblari bilan ishlashda geologga yordam berish
		6. Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida mavjud belgilar, qatorlar va kodlarni to'g'ri qo'llash
		7. Dastlabki ma'lumotlarni saralash, tartiblash va belgilash jarayonida ko'maklashish
		8. To'plangan daftar, jadval yoki kartochkalardagi ma'lumotlarni xatolarga tekshirishda yordam berish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Geologik ma'lumotlarni yig'ish jarayonida ko'rsatmalarga aniq amal qilish
		Dala yozuv daftari, kuzatuv kartasi yoki elektron planshetga aniq yozuv kirita olish
		Geologik belgilash va kodlash usullarini soddalashtirilgan shaklda qo'llay olish
		Asosiy o'lchov va belgilash asboblaridan xavfsiz va to'g'ri foydalanish
		Namunalar bo'yicha asosiy ma'lumotlarni aniqlik bilan yozib borish
		Ma'lumotlarni saralash, tartiblash va qayta tekshirishda e'tibor bilan ishlay olish
		Ish jarayonida geolog bilan samarali muloqot va jamoada ishlash
		Mehnat xavfsizligi talablari asosida dala sharoitida to'g'ri harakatlanish va ishlash
		<b>Bilimlar:</b>
		Geologik ma'lumotlarni yig'ishning asosiy maqsadi va bosqichlari
		Dala yozuv daftari va kuzatuv kartalarining tuzilishi
		Geologik belgilar, kodlar, raqam berish tartibi
	O'lchov va belgilash asboblarining tuzilishi hamda foydalanish qoidalari	
	Geologik obyektlar bo'yicha eng zarur tushunchalar	

		Dala sharoitida xavfsizlik talablari	
		Ma'lumotlarni yozishda aniqlik va xatolarni oldini olish bo'yicha nazorat bilimlari	
		Olingan ma'lumotlarni geologga topshirish tartibi va hujjatlarni shakllantirish tartibi	
	<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>		1. Geolog va kon ustasi tomonidan berilgan topshiriqlarni aniq, to'liq va belgilangan ketma-ketlikda bajaradi
			2. Yordamchi texnologik jarayonlarni bajarishda mehnat xavfsizligi, ekologik va ishlab chiqarish qoidalariga rioya qiladi
			3. Olingan namuna, ma'lumot, belgilash va asbob-uskunalarining saqlanishi va to'g'ri qo'llanilishi uchun javobgar
			4. Ish joyini doimo tartibli, toza va xavfsiz holatda saqlash uchun mas'ul
			5. Yuzaga kelgan oddiy nosozliklar yoki xavfli holatlar haqida darhol rahbar xodimga xabar beradi
			6. Yordamchi jarayonlarda qo'llaniladigan jihoz va vositalarning zarur holatda bo'lishi, buzilmasligi va ishdan so'ng topshirilishi uchun mas'ul
			7. Geologik-qidiruv ishlari bo'yicha kiritilgan yozuv va belgilarni aniq va xatosiz rasmiylashtirish uchun javobgar
			8. Oddiy yordamchi texnologik operatsiyalarni geolog ko'rsatmasi bo'yicha mustaqil bajara oladi
			9. O'ziga birlashtirilgan ish uchastkasida kundalik tartibdagi sodda vazifalarni mustaqil tashkil eta oladi
			10. Asbob-uskunalaridan foydalanishda sodda sozlash va foydalanishni mustaqil bajaradi
11. Dala yozuvlarini kiritish, numar qo'yish, qadoqlash kabi vazifalarni ko'rsatma asosida mustaqil yakunlaydi			
12. Murakkab jarayonlar, xavfli ishlar yoki texnik yechim talab etiladigan holatlarda rahbar xodimdan ko'rsatma olguncha kutadi va o'z boshimchalik qilmaydi			
A2.2 - Foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olishga tayyorgarlik va yordamchi ishlarni bajarish	A2.01.2 - Ochiq kon maydonini qazib olishga tayyorlash bo'yicha boshlang'ich texnik ishlarni amalga oshirish	<b>Mehnat harakatlari:</b>	
		1. Ochiq kon maydonida bajariladigan ishlar uchun ish joyini tayyorlash, tozalash va tartibga keltirish	
		2. Belgilangan hudud bo'ylab qoziqlarni o'rnatish, lenta tortish va belgilarni ko'rsatma asosida qo'yish	
		3. Texnika va mexanizmlar ishlashi uchun maydonni tekislashga yordam berish, to'siqlarni olib tashlash	
		4. Tog' jinslarini yumshatish yoki maydalash uchun boshlang'ich qo'shimcha yordamchi operatsiyalarni bajarish	
		5. Dala sharoitida o'lchov asboblarni ish joyiga yetkazish va ko'rsatma bilan o'rnatish	
		6. Ish jarayonida hosil bo'lgan chiqindi, ortiqcha tuproq va toshlarni ko'rsatma asosida yig'ish, tartiblash va olib tashlashga ko'maklashish	

		7. Ekskavator, buldozer, yuklagich kabi texnikalarning kirib-chiqish yo'laklarini tozalash va tayyorlashda yordam berish
		8. Yakuniy bosqichda ish hududini tartibga keltirish va xavfsiz holatda qoldirish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Ochiq kon maydonida boshlang'ich tayyorlov ishlarini ko'rsatma asosida to'g'ri bajara olish
		Qoziqlar, lenta, marker, sath tekshirgich kabi oddiy asboblarni to'g'ri o'rnatish olish va ishlatish
		Ish joyini tozalash, tosh va tuproqni saralash bo'yicha jismoniy ishlarni xavfsiz bajarish
		Mashina va mexanizmlar harakatlanadigan hududlarda xavfsiz ravishda ishlay olish
		Kichik nosozliklar, to'siqlar va texnik xatoliklarni aniqlay olish va rahbar xodimga xabar berish
		Shaxsiy himoya vositalaridan doimiy va to'g'ri foydalanish
		Jamoa bilan ishlash, ko'rsatmalarni aniq qabul qilish va bajara olish
		O'lchov natijalarini yoki belgilash joylarini aniq va xatosiz qayd etish
		<b>Bilimlar:</b>
		Ochiq kon maydonini qazib olishga tayyorlashning asosiy bosqichlari
		Belgilash, qoziq o'rnatish, lenta tortish va maydonni tayyorlashning sodda texnologik tartibi
		Ochiq konlarda ishlatiladigan texnikalar haqida umumiy tushunchalar
		Hududni xavfsiz holatda ushlash va texnika harakatlanadigan zonalarda mehnat xavfsizligi qoidalari
		Asbob-uskunalarning nomi, vazifasi va ulardan to'g'ri foydalanish tartibi
		Tog' jinrlarining soddalashtirilgan turlari va ularning zichligi, mustahkamligi bo'yicha qoidalar
		Chiqindilarni ajratish, maydonni tozalash va saralash bo'yicha texnik qoidalar
		Ish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sodda xavf va xatoliklarni oldini olish va xabar berish tartibi
	A2.02.2 - Ochiq usulda qazib olish jarayonini qo'llab-quvvatlovchi yordamchi texnologik ishlarni bajarish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Ish joyida xavfsizlik qoidalariga muvofiq ish kiyimlari va individual himoya vositalarini tanlash va ulardan foydalanish
		2. Smena topshirish yoki qabul qilish jarayonida bajarilgan va bajarilishi kerak bo'lgan yordamchi texnologik ishlar haqida ma'lumot olish yoki topshirish
		3. Karyer ichki yo'llarini, avtomobil yo'llarini, vagon yo'llarini chiqindi jinrlar, loy va boshqa to'siqlardan tozalash
		4. Foydali qazilma jinrlarning aralashuv darajasini tashqi belgilar bo'yicha tekshirish va hisobga olish

		5. Portlatish ishlari zonalarda xavfsizlikni ta'minlashga yordam berish: vaqtinchalik omborlardan portlovchi moddalarni olib o'tishda ko'maklashish, zaryadlangan quduqlarni himoyalashda ishtirok etish, zaboyka materiallarini tayyorlash
		6. Ogohlantiruvchi belgilar, xavfsizlik to'siqlari va ko'rsatkichlarni o'rnatish, signallarni berish yoki qabul qilish
		7. Materiallar, asbob-uskunalar va konstruksiyalarni yuklash, tushirish hamda tashishda ishtirok etish
		8. Burg'ilash ishlari uchun loy aralashmalari va emulsiyalarni mikserlarda yoki qo'lda tayyorlash
		9. Ishlatilgan texnik moylarni yig'ish, saralab qayta ishlashga topshirish
		10. Karyer yo'llarini muzlagan holatda qum sepish, suv isitish va tashish, shuningdek, drenaj hamda oddiy servis ishlarini bajarish
		11. Texnologik jarayonlar xavfsizligi uchun zarur bo'lgan sodda nazorat, kuzatuv va yordamchi amallarni bajarish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Ochiq kon sharoitida asosiy xavfsizlik choralarini qo'llash va to'g'ri himoyalash
		Karyer yo'llarini, ish maydonlarini tozalash va ularni texnik talabga mos holatda ushlab turish
		Portlash ishlari uchun yordamchi materiallarni tayyorlay olish va belgilangan tartibda joylashtirish
		Tashqi ko'rinish bo'yicha jinslarni farqlay olish va aralashuv darajasini aniqlashga amaliy yordam berish
		Mikser va oddiy tayyorlov qurilmalarida loy va emulsiya tayyorlay olish
		Materiallarni qo'l mehnati yoki oddiy mexanizmlar orqali yuklash-tushirish jarayonlarini xavfsiz bajara olish
		Ogohlantiruvchi belgilarni to'g'ri o'rnatish olish va sodda signalizatsiya qoidalariga rioya qilish
		Muzlagan yo'llarni qumlash, drenajni tozalash, suv tashish kabi yordamchi texnik amallarni bajara olish
		Ishlatilgan moy va texnik chiqindilarni to'g'ri yig'ish, saralash va topshirishni amalga oshirish
		<b>Bilimlar:</b>
		Ochiq konlarda mehnat xavfsizligi va sanoat xavfsizligining asosiy talablari
		Portlatish ishlari olib boriladigan zonalarda xavfsizlik qoidalari
		Ochiq kon geologik-strukturaviy zonasining umumiy xususiyatlari
		Chiqindi jinslar va foydali qazilma aralashuvining asosiy tashqi belgilari
		Kon yo'llari va ichki transport yo'llarini texnik talablari
		Smena topshirish tartibi va ishlab chiqarish intizomi talablari
		Yordamchi texnologik jarayonlarni bajarish tartibi

		Ogohlantiruvchi belgilar va signalizatsiya tizimlarining asosiy qoidalari
		Ishlatilgan moy va chiqindilarni yig'ish, saqlash va topshirish qoidalari
	<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	1. Berilgan topshiriqlarni texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish intizomi talablari asosida bajarish uchun javobgar bo'ladi
		2. Ochiq kon hududida texnologik tartib-intizomga rioya qilinishini ta'minlashda o'z zimmasidagi vazifalar doirasida mas'ul bo'ladi
		3. Tayyorlov va yordamchi ishlar davomida ishlatiladigan materiallar, vositalar, asbob-uskunalar va himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish hamda ularni saqlashga mas'ul bo'ladi
		4. Portlatish ishlari zonasida yordamchi operatsiyalarni bajarishda xavfsizlik qoidalariga amal qilish uchun javobgar bo'ladi
		5. Ish joyini toza va tartibli saqlash, yo'llarni tozalash, drenaj tizimini ish holatida ushlab turish kabi texnik sharoitlarning xavfsizligini ta'minlashga javob beradi
		6. Smenaviy topshiriqlarni to'g'ri qabul qilish va topshirishda zarur ma'lumotlarni aniq yetkazishga mas'ul bo'ladi
		7. O'ziga biriktirilgan tayyorlov va yordamchi texnik ishlarni oddiy ko'rsatmalar asosida mustaqil bajaradi
		8. Ish jarayoni davomida duch kelgan sodda texnik muammolarni o'z malakasi doirasida mustaqil hal qiladi
		9. Individual himoya vositalarini tanlash va ulardan foydalanishda mustaqil qaror qabul qiladi
		10. Yordamchi jarayonlar bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan amallar ketma-ketligini mustaqil belgilay oladi
		11. Smena topshirish yoki qabul qilishda, o'z faoliyati doirasidagi holat va amalga oshirilgan ishlar haqida mustaqil ravishda hisobot beradi
		12. Ish jarayonida xavf tug'diruvchi holatlarni aniqlaganda mustaqil ravishda xavfsizlik choralari ko'radi va rahbariyatga xabar beradi
A3.2 - Foydali qazilmalarni yer osti usulida qazib olishda umumiy kon-tayyorlov ishlarini tashkil etish	A3.01.2 - Yer osti kon maydonida tayyorlov va yordamchi texnik jarayonlarni amalga oshirishni tashkil etish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Yer osti kon maydonida tayyorlov va yordamchi texnik ishlarning ketma-ketligini belgilashda ishtirok etish
		2. Kon yo'laklari va ish maydonlarini tozalash, kengaytirish, yoritish hamda xavfsiz ish holatiga keltirish choralari ko'rish
		3. Burg'ilash, portlatishga tayyorgarlik ko'rish, shamollatish va suv chiqarish qurilmalarining ishlash holatini tekshirishda yordam berish
		4. Materiallar, asbob-uskunalar va qurilmalarni ish joyiga yetkazish, ularni tartibga keltirish va joylashtirish ishlarini bajarish

		5. Ish joyida to'siqlar, ogohlantiruvchi belgilar va xavfsizlik moslamalarini o'rnatishda qatnashish
		6. Drenaj, suv chiqarish, shamollatish yo'laklaridagi loy, chiqindi jinslar va suvni tozalash bo'yicha yordamchi jarayonlarni bajarish
		7. Nasos, yuk tashish vositalari, yo'laklarni mustahkamlash materiallarini tayyorlash va ularga xizmat ko'rsatishda yordam berish
		8. Smenaviy topshiriqlarni oladi, o'zining bajarilishi lozim bo'lgan tayyorlov va yordamchi ishlar holatini nazorat qilish
		9. Ish maydonida sodir bo'lgan texnik nosozliklar haqida mas'ul shaxslarga xabar berish
		10. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, ish joyini tartibli saqlash va xavfsizlik talablariga qat'iy rioya etish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Yer osti sharoitida yordamchi texnik ishlarni tartibli, xavfsiz va ketma-ketlikda bajara olish
		Ko'rsatma asosida drenaj, shamollatish va yoritish tizimlarining sodda elementlarini tekshira olish hamda xizmat ko'rsatish
		Asbob-uskunalarini olib yurish, joylashtirish, ulardan foydalanish va saqlay olish
		Ogohlantiruvchi belgilar va to'siqlarni to'g'ri o'rnatish va ko'rsatmalar asosida to'g'ri joylash
		Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish, ish joyidagi xavfsizlik choralarini mustaqil qo'llay olish
		Oddiy mexanik nosozliklarni aniqlay olish va ustaga ma'lum qilish
		Smenaviy axborotlarni to'g'ri qabul qilish va topshirish, o'z ish faoliyatini qisqa tarzda izohlab berish
		<b>Bilimlar:</b>
		Yer osti kon ishlarining umumiy texnologiyasi va tayyorlash jarayonlari
		Yer ostida qo'llaniladigan yoritish, shamollatish, suv chiqarish tizimlarining sodda konstruksiyalari va ularning vazifalari
		Kon yo'laklarini tozalash, mustahkamlash va xavfsiz holatga keltirish bo'yicha asosiy talablar
		Asbob-uskunalar, materiallar va texnik moslamalardan foydalanish qoidalari
		Shaxsiy himoya vositalari turlari, ularni qo'llash tartibi
		Smenaviy topshiriqlarni bajarish tartibi va ishlab chiqarish intizomi talablari
		Yer osti konchiligida amal qilinadigan sanitariya-gigiyena, sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalari

	A3.02.2 Yer osti kon- tayyorlov ishlarida xavfsizlik va texnologik tartibning bajarilishini ta'minlash	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Yer osti ish joyida texnika xavfsizligi va texnologik tartiblarga rioya etilishini doimiy nazorat qilish
		2. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, ularni to'g'ri kiyish va saqlashni ta'minlash
		3. Kon yo'laklari, shamollatish yo'llari, favqulodda chiqishlar va yoritish tizimlarining xavfsiz ish holatini tekshirish
		4. Drenaj tizimi, suv oqimi va suv yig'ilishi bo'yicha xavf tug'diruvchi holatlarni aniqlash va choralar ko'rish
		5. Mustahkamlash konstruksiyalari, to'siqlar va ogohlantiruvchi belgilarni joyida va to'g'ri o'rnatilganligini tekshirish
		6. Kon yo'llari bo'yicha harakatlanish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish
		7. Xavfli zonalarni belgilash, ayrim bo'limlarga kirishni cheklash va ogohlantirish axborotlarini yetkazish
		8. Yoritish, shamollatish, gaz holati va chang miqdori normalariga rioya etilishi bo'yicha kuzatuv olib borish
		9. Ish maydonida topilgan texnik nosozliklar va xavf tug'diruvchi holatlar haqida mas'ul shaxsga xabar berish
		10. Avariya va favqulodda holatlarda belgilangan tartibda harakat qilish hamda boshqalarga ogohlantirish berish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Yer osti konidagi xavfsizlik talablarini amalda qo'llay olish va jarayon davomida nazorat qilish
		Shaxsiy himoya vositadan to'g'ri foydalanish, ularni tanlash, o'rnatish va saqlash
		Shamollatish, yoritish va drenaj tizimlarining sodda elementlarini tekshirish va ularning ishlashini baholash
		Xavf tug'diruvchi holatlarni tez aniqlash va tegishli choralarni ko'rish
		Ogohlantiruvchi belgilar va to'siqlarni to'g'ri o'rnatish, ishchilarni xabardor qilish
		Gaz, chang, namlik va yorug'lik bilan bog'liq xavfsizlik me'yorlarini sodda usulda baholash
		Ish joyini toza, tartibli va xavfsiz holatda saqlash
		Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, boshqalarni ogohlantirish va evakuatsiya choralarni qo'llash
<b>Bilimlar:</b>		
Yer osti konchiligida amal qilinadigan texnika xavfsizligi, sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalari		
Shaxsiy himoya vositalari turlari, ularning vazifasi, qo'llash tartibi va o'rnatilgan me'yorlar		
Yer osti shamollatish tizimi, havo oqimi yo'nalishlari va minimal ruxsat etilgan ko'rsatkichlar		

		Drenaj va suv chiqarish tizimlarining asosiy elementlari
		Mustahkamlash konstruksiyalarining vazifasi va xavfsizlik talablari
		O'tkazish yo'llari, piyodalar yo'laklari, xavfsiz harakatlanish me'yorlari
		Gaz portlashi, chang portlashi, suv bostirishi kabi asosiy xavflar va ulardan himoyalash choralarini
		Favqulodda holatlarda harakat qilish bo'yicha belgilangan me'yoriy talablar
		Yer osti konchiligida amal qilinadigan texnika xavfsizligi, sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalari
	<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	1. Ish maydonida texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi talablariga rioya etadi
		2. Yoritish, shamollatish, drenaj va mustahkamlash vositalarining ish holatini saqlashda o'ziga yuklatilgan vazifalar bo'yicha mas'ul bo'ladi
		3. Kon yo'laklari, tayyorlov maydonlari va yordamchi yo'llarni xavfsiz holatda saqlaydi
		4. Chiqindi jinslarni vaqtida tozalash, yo'laklarni ochiq va o'tish uchun qulay saqlaydi
		5. Smena topshirish va qabul qilishda tayyorlov ishlarining holati haqida aniq axborot beradi
		6. Yuzaga kelgan nosozliklar, xavfli holatlar va buzilishlar haqida mas'ul shaxslarga o'z vaqtida xabar beradi
		7. Berilgan topshiriqlar asosida tayyorlov va yordamchi ishlar ketma-ketligini mustaqil belgilay oladi
		8. O'z malakasi doirasida texnik murakkab bo'lmagan masalalarni mustaqil hal qiladi
9. Shaxsiy himoya vositalaridan mustaqil foydalanadi, xavfsizlik talablariga rioya qiladi		
10. Xavf tug'diruvchi holatni aniqlaganda o'z vaqtida choralar ko'radi va rahbariyatni xabardor qiladi		
11. Shamollatish, yoritish, yo'laklarning holati, mustahkamlash elementlari va drenaj tizimlarini sodda darajada mustaqil baholay oladi		
12. Ish maydonini tartibli holga keltirish, materiallarni joylashtirish va ishga tayyorlashni mustaqil bajaradi		
13. O'z vazifalari bo'yicha bajarilgan ishlar, ko'rilgan choralar va mavjud muammolar haqida mustaqil ravishda hisobot beradi		
<b>Texnik va/yoki texnologik talab</b>	Ish joyi xavfsiz, yoritilgan va texnologik jarayonlar uchun tayyor holatda bo'lishi kerak; Ishga kirishishdan oldin geologik asbob-uskunalarining texnik sozligini tekshirish shart; Dala sharoitida ishlatiladigan o'lchov asboblari, belgilash anjomlari va konteynerlar to'g'ri joylashtirilishi lozim; Burg'ilash, namuna olish, markirovka qilish jihozlarini toza va ishlashga tayyor holatda saqlash zarur;	

	<p>Geologik kompas, GPS, ruletka, niveller, lupa, namunalar uchun konteynerlar, geo-jurnallarni to'g'ri va me'yoriy tartibda qo'llash shart;</p> <p>Dala sharoitida ishlatiladigan engil mexanizmlar va burg'ilash moslamalaridan xavfsiz va texnologik talablarga mos foydalanish kerak;</p> <p>O'lchov va qayd etish uskunalarini to'g'ri sozlash, kalibrlash va ulardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilish lozim;</p> <p>Turg'un, ifloslanmagan va sifatli namuna olish uchun belgilangan usullarga rioya qilish shart;</p> <p>Har bir olingan namunaning markirovkasi, qayd etilishi va konteynerga joylashtirilishi aniq tartibda bajarilishi kerak</p> <p>Namuna olish maydoni yuzasini tayyorlash, biologik yoki texnologik ifloslanishni oldini olish lozim;</p> <p>Jinslarning turi, qatlamning qalinligi, yo'nalishi, strukturasi va xususiyatlarini aniq qayd etish shart;</p> <p>Geo-jurnal va dalada qayd etish blankalarini to'g'ri to'ldirish kerak;</p> <p>Topilgan ma'lumotlarni dastlabki tahlil qilish, farqlash, guruhlash va tasniflash bo'yicha texnologik qoidalarga rioya qilish lozim;</p> <p>Belgilangan dala marshrutiga, xavfsiz harakatlanish yo'nalishlariga va tadqiqot hududidagi texnik ko'rsatmalarga rioya qilish shart;</p> <p>Geologik qidiruv ishlarida ishlatiladigan yordamchi texnik jarayonlar (maydon tozalash, belgilash, burg'ilashga tayyorlash)ni me'yoriy tartibda bajarish kerak;</p> <p>Ish joyida chiqindilarni tozalash, atrof muhitni himoya qilish talablari bajarilishi lozim;</p> <p>Mutaxassis tomonidan berilgan yo'riqnomalar asosida belgilangan geologik chizish, o'lchash va namuna olish amallarini bajarish shart;</p> <p>Topshiriqlarga o'z vaqtida va to'liq javob berish, zarur hisobotlarni taqdim etish lozim;</p> <p>Aniqlangan o'zgarish yoki xavfli holatlar haqida darhol xabar berish kerak;</p> <p>Geologik o'lchash va nazorat asboblari: Kompas, nivo va repletyorlar, rulonka, lazer o'lchagich;</p> <p>Qazish, Burg'ilash va namunalar olish asboblari: qo'l burg'usi, bolgo'cha, kesgich va qo'poruvchi maxsus asboblari, skreper va belkurak, yadro olish qurilmalari;</p> <p>Xavfsizlik uskunalari: kaska, himoya ko'zoynaklari, qo'lqoplar, xavfsizlik chirog'i, respirator yoki chang niqobi, signal ko'ylagi</p>
--	--

Kasbning nomi:	Marksheyderlik ishlarida kon ishchisi	
Mashg'ulot nomining kodi:	81119	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba ( ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kamida bir yil ish staji	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>18 yoshga to'lgan shaxs;  Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tganligi;  O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik;  Nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish;  Geodezik asbob-uskunalar bilan ishlash bo'yicha boshlang'ich ko'nikmalarga ega bo'lish;  Yer osti va ochiq konlarda tayyorlov va yordamchi ishlarni bajarish;  Geologik va marksheyderlik nazorat ishlariga yordam berish;  Ish joyida xavfsizlik qoidalarini bilish va rioya qilish;  O'lchov natijalarini oddiy hujjatlarda qayd etish;  Diqqat va aniqlik bilan ishlash;  Mas'uliyatni his qilish va xavfsizlikni ta'minlash;  Oddiy jamoaviy ishlarda hamkorlik qila olish;  O'z ishini belgilangan tartibda bajarish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	umumiy o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	tayanch o'rta ta'lim + ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	2-razryadli Marksheyderlik ishlarida kon ishchisi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>	<b>Kasbning nomi:</b>
	2	Ochiq kon ishchisi
	2	Geologik ishlarda kon ishchisi
	3	Yer osti kon ishchisi
<p><b>Texnik va/yoki texnologik talab</b></p>	<p>Zaboyda qazib olish va tozalash ishlarini belgilangan texnologik sxema va ish loyihasiga muvofiq bajarish shart</p> <p>Zaboyni ishga tayyorlash jarayonlarini mustaqil amalga oshirish va ishga yaroqlilik holatini baholash zarur</p> <p>Tog' jinslarining fizik-mexanik holatini baholab, xavfli zonalarni aniqlash lozim</p> <p>Qazib olish ishlarida mexanizatsiyalashgan va qo'l asbob-uskunalarini mustaqil va xavfsiz boshqarish shart</p> <p>Zaboyda qazib olish ketma-ketligini texnologik talablarga muvofiq ta'minlash zarur</p> <p>Qazib olingan tog' jinslarini tozalash, yig'ish va tashish ishlarini ishlab chiqarish me'yorlariga muvofiq bajarish lozim</p> <p>Zaboy mustahkamlash elementlarining texnik holatini nazorat qilish shart</p> <p>Ventilyatsiya, yoritish va suv chiqarish tizimlarining samarali ishlashini ta'minlash zarur</p> <p>Asbob-uskunalariga muntazam texnik xizmat ko'rsatish va ishga yaroqliligini saqlash lozim</p> <p>Texnologik og'ishlar, nosozliklar va xavfli holatlar aniqlanganda ishni to'xtatish va rahbarga xabar berish shart</p> <p>Mehnat xavfsizligi, sanitariya-gigiyena va ekologik talablarni to'liq bajarish zarur</p> <p>Ish jarayonida texnologik intizomga rioya qilish va ishlab chiqarish madaniyatini ta'minlash lozim</p> <p>Qo'l asboblari: Belkurak (oddiy, kuchaytirilgan), lom (temir pryom), bolg'a (konchilik bolg'asi), kirka, metall cho'tka, kalitlar to'plami (gayka va boltlar uchun)</p> <p>Mexanizatsiyalashgan asboblari: Pnevmatik yoki elektr perforator, pnevmatik bolg'a (otboynik), elektr yoki pnevmatik burg'ilash moslamalari, portativ yuk ko'tarish moslamalari (tal, lebyodka), zaboyni tozalash mexanizmlari (skreper, mini-konveyer)</p> <p>Shaxsiy himoya vositalari: konchilik kaskasi, himoya ko'zoynaklari, chang va gazga qarshi respirator, himoya qo'lqoplari, maxsus ish kiyimi va poyabzal, quloqni himoyalovchi vositalar, o'zini-o'zi qutqaruvchi (samospasatel)</p>
---	---

Kasbning nomi:	Yer osti (yer usti ishlar) kon ishchisi
Mashg'ulot nomining kodi:	81111
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Ishga 18 yoshga to'lgan shaxslar qo'yiladi; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dastlabki majburiy (ishga kirayotganda) va davriy tibbiy ko'riklardan (tekshiruvlardan), shuningdek navbatdan tashqari tibbiy ko'riklardan (tekshiruvlardan) o'tish;</p> <p>Mehnatni muhofaza qilish talablari bo'yicha o'qitish va bilimlarni tekshirish, sanoat xavfsizligi bo'yicha tayyorgarlik va bilimlarni tekshirishdan o'tish;</p> <p>Mehnat va texnika xavfsizligi talablariga so'zsiz bo'ysunish;</p> <p>Ish tartibi, smena rejimi va texnologik ketma-ketlikka rioya qilish;</p> <p>Yer osti ishlarida xavf manbalarini vaqtida sezish;</p> <p>Yer osti yoki yer usti qazib olish jarayonlarining asosiy bosqichlari haqida tasavvurga ega bo'lish;</p> <p>Portlatishdan oldingi tayyorgarlik, yo'lak qazish, mustahkamlash ishlarining ketma-ketligini tushunish;</p> <p>Ish jarayonida uchraydigan oddiy nosozliklarni aniqlash va ustaga xabar berish;</p> <p>Ish joyini tartibli saqlash;</p> <p>Ish jarayonida o'lchov, belgilash va nazorat operatsiyalarida aniqlikni ta'minlash;</p> <p>Og'ir jismoniy yuklamalarga bardosh bera olish;</p> <p>Tor, nam, changli va shovqinli joylarda ishlashga moslashuvchanlik;</p> <p>Favqulodda holatlarda tez qaror qabul qilish;</p> <p>Brigada bilan o'zaro yordam, tushunish va kelishuv asosida ishlash;</p> <p>Murakkab, riskli va bosim ostidagi vaziyatlarda xotirjam ishlash;</p> <p>O'zini boshqarish, ziddiyatlardan chetlab o'tish;</p> <p>Mustaqil oddiy texnik yechimlar taklif qila olish</p>
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim; o'rta maxsus ta'lim;
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3-razryadli Yer osti (yer usti ishlar) kon ishchisi

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>	<b>Kasbning nomi:</b>
	2	Geologik ishlarda kon ishchisi
	3	Mustahkamlovchi
	3	Tozalash zaboyi kon ishchisi
	3	Tog'-kon jihozlari ta'mirlovchi elektrchilangar
<b>Mehnat funksiyalarining tavsifi</b>		
<b>Kodi va nomi</b>	<b>Mehnat vazifalari</b>	
E1.3 - Yer ostida qazib olish jarayoniga tayyorgarlik ko'rish uchun kon yo'llari va ish joylarini yaratish, mustahkamlash va xavfsiz ishlash sharoitini ta'minlash	E1.01.3 - Shaxtalarda kon lahimlarini kovlashda yordamchi ishlarni bajarish	<b>O'qitish natijalari</b>
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Amaldagi talablar asosida ish kiyimlari va individual himoya vositalarini aniqlash, qo'llash va saqlash
		2. Smenani qabul qilish-topshirish vaqtida kon lahimlarini kovlash va qazib olishdagi yordamchi operatsiyalar bo'yicha smenaning ishlab chiqarish vazifalari haqida ma'lumot olish
		3. Javobgarlik zonasidagi lahimlar, kreplar, ventilyatsiya, rels yo'llari izlari va strelkali o'tkazish joylari holatini tekshirish
		4. To'planib qolgan kon massasi, to'lg'azma materiallari va boshqalarni qo'l bilan yoki mexanizmlar yordamida yumshatish
		5. Kon massasini skreperlash va ishlangan maydonni yotqizish, harakatlantirish
		6. Relsli yo'llarni ta'mirlash, taxta to'malar va tuproq tabaqalarini tozalash
		7. Uskunalar montaji va boshqa shunga o'xshash ishlar bo'yicha yordamchi operatsiyalarni bajarish
		8. Eritmalar tayyorlash va lahimlarni oqlash
		9. Ventilyatsiya eshiklarini ochish va yopish
		10. Ventilyatsiya quvurlarini lahimlar bo'ylab yotqizish va tutashtirgichlar qurilishida qatnashish
		11. Ventilyatsiya qurilmalarini soz holatda saqlash
		12. Ventilyatsiya quvurlarining shikastlangan qismlarini ta'mirlash va almashtirish hamda chiqindilarni tozalash bilan ventilyatsiya tutashtirgichlarini joriy ta'mirlash
		13. To'lg'azma quduqlari (skvajinalar) bo'g'izlariga xizmat ko'rsatish
		14. Vagonetkalarini, rels yo'llarini, plitalarni, burilish doiralarni va suv to'kish ariqchalarini jinlar va axlatlardan tozalash
15. Zaboy zonasidan tashqarida vagonetkalariga jinlar va axlatlarni yuklash		
16. Materiallar va jihozlarni transport vositalariga yuklash va qo'lda tushirish, ularni belgilangan joylarga va uchastkalar bo'ylab qo'lda yetkazib berish		

		17. Yer yuziga shaxtadan berish uchun materiallarni qo'lda (tik stvol bo'ylab) yetkazib berish, vagonetkalar yoki maydonchalardan qo'lda tushirish va belgilangan joylarga yig'ish
		18. Vagonetkalar va katta qutilarga portlovchi moddalarni yuklash va ularni omborlarga yoki portlovchi moddalar beriladigan joylarga yetkazib berishda transport idishlaridan tushirish
		19. Portlovchi materiallarni omborxonalarining saqlash joylariga joylashtirish
		20. Portlovchi moddalar ombori xonalarini tozalash
		21. Portlatuvchi nazorati ostida portlovchi moddalarni portlatish joylariga yetkazib berish
		22. Portlatish joyiga borish yo'llarini qo'riqlash
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Ish kiyimlari va shaxsiy himoya vositalarni to'g'ri tanlab kiyish va sozligini tekshirish
		Smenani qabul qilish-topshirish vaqtida vazifalar va ish joyi holatini qabul qila olish
		Lahim, kreplar, rels yo'llari va ventilyatsiya holatini tezkor ko'zdan kechirish
		Kon massasini qo'l asboblari yoki mexanizmlar yordamida yumshatish va tozalash
		Skreper yordamida kon massasini yig'ish va belgilangan joyga ko'chirish
		Rels yo'llarini tekislash, ta'mirlash va tozalashda yordam bera olish
		Eritma tayyorlash va lahimlarni oqlashni bajarish
		Ventilyatsiya eshiklarini ochish-yopish qoidalariga amal qilish
		Ventilyatsiya quvurlarini yotqizish, ulash va shikastlangan qismlarini almashtirish
		To'lg'azma quduqlari bo'g'izlariga xizmat ko'rsatish
		Vagonetkalar va transport yo'llarini jins va axlatlardan tozalay olish
		Vagonetkalariga jins va materiallarni yuklay olish va tushirish
		Materiallarni qo'lda yoki mexanizmlar yordamida uchastkalar bo'ylab tashish
		Portlovchi moddalarni yuklash, tushirish va omborga joylashtirishda xavfsizlikka rioya qilish
		Portlatish joylariga materiallarni yetkazishda portlatuvchi rahbar ko'rsatmalariga amal qilish
		<b>Bilimlar:</b>
		Yerosti shaxtalarida mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalari
		Portlovchi moddalar bilan ishlashda taqiqlar va asosiy xavfsizlik talablari

		Yonuvchi, portlovchi, gaz va chang xavfi mavjud zonalar bo'yicha talablar
		Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi
		Individual himoya vositalarining turlari va ulardan foydalanish qoidalari
		Kon lahimlarining tuzilishi, zaboy, kreplar, rels yo'llari va ventilyatsiya tizimlarining asosiy elementlari
		Kon jinslarining xususiyatlari
		Qazish va tozalash jarayonlari
		Shaxta ventilyatsiya tizimining vazifasi va tuzilishi
		Ventilyatsiya quvurlarining turlari, ulanish usullari va bosim pasayishi sabablari
		Yuklash, tushirish va materialni qo'lda tashish me'yorlari
		Stvol va maydoncha bo'ylab yuklarni ko'tarish tartibi
		Vagonetka va rels yo'llari bilan ishlash xavfsizligi talablari
		Eritma tayyorlash va oqlash texnologiyasi
		Kon lahimlarini tozalash tartibi
	E1.02.3 - Shaxtalarda Burg'ilash–portlatish ishlariga tayyorgarlik ko'rish hamda yordamchi amallarni bajarish	<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Amaldagi talablar asosida ish kiyimlari va individual himoya vositalarini tanlash, to'g'ri qo'llash va saqlash
		2. Smenani qabul qilish-topshirish vaqtida Burg'ilash-portlatish ishlariga tayyorgarlik va yordamchi operatsiyalar bo'yicha smena vazifalari haqida ma'lumot olish va topshirish
		3. Burg'ilash-portlatish ishlari olib boriladigan joylarga Burg'ilash asbob-uskunalarini yetkazib berish
		4. Kon lahimlarining tomi va yon tomonlarini burg'ilash va zarb bolg'alari yordamida yoki qo'lda uzib tushirish
		5. Burg'ilash va zarb bolg'alarining mayda nosozliklarini bartaraf etish
		6. Shpurlar va qayta-burg'ilash ishlarini qo'lda bajarish
		7. Tiqinlarni tayyorlash va burg'ilangan teshiklarga qoqish
		8. Burg'ilar va koronkalarni kon-geologik sharoitlarga muvofiq tanlash
		9. Zaboylarni tozalash va tayyorlash jarayonida plast va ekspluatatsion namunalarni olish
		10. Portlatuvchi nazorati ostida quduqlar, shpurlar va mina kameralarini zaryadlash jarayonida ishtirok etish
		11. Portlatish ishlari olib boriladigan joylarda portlovchi materiallarni belgilangan tartibda qo'riqlash
		12. Asbob-uskunalarini yig'ish, tozalash va belgilangan joyga topshirish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Burg'ilash va portlatish ishlari ketma-ketligini amalda qo'llay olish
	Ish joyida xavfli omillarni aniqlash va ularga rioya qilish	
	Portlovchi moddalar bilan ishlashda belgilangan qoidalarga amal qilish	

		Jamoa tarkibida portlatuvchi va burg'ulovchilar bilan muvofiqlashib ishlash
		Shamollatish, gazdan tozalash jarayonlarida ishtirok etish
		Mehnat muhofazasi vositalaridan to'g'ri foydalanish
		Favqulodda holatlarda rahbar ko'rsatmalariga muvofiq harakat qilish
		<b>Bilimlar:</b>
		Shaxtalarda Burg'ilash–portlatish ishlarining umumiy texnologiyasi
		Portlovchi moddalar va detonatorlarning asosiy turlari
		Portlatish ishlarida xavfsizlik qoidalari va signal tizimi
		Shaxta shamollatish va gazdan tozalash asoslari
		Burg'ilash asbob-uskunalarining tuzilishi va ishlash prinsipi
		Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi talablari
		Portlatishdan oldin va keyin bajariladigan majburiy amallar
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1.Amaldagi talablar va bajariladigan ish turiga muvofiq ish kiyimlari va individual himoya vositalarini aniqlash, kiyish, tekshirish va saqlash
		2.Smenani qabul qilish-topshirish jarayonida ishlab chiqarish vazifalari, ish joyining holati, mavjud xavf-xatarlar va bajarilishi lozim bo'lgan operatsiyalar bo'yicha ma'lumot olish
		3.Javobgarlik zonasidagi yer osti texnologik uskunalar va mexanizmlarining texnik holatini vizual va funksional tekshirish
		4.Burg'ilash–portlatish ishlari olib boriladigan joylarga Burg'ilash asboblari, zarb bolg'alari, burg'ilar va koronkalarni yetkazib berish
		5.Tog' jinslari xususiyatiga mos ravishda burg'ilar va koronkalarni tanlash
		6.Burg'ilash va zarb bolg'alarining mayda nosozliklarini aniqlash va kichik ta'mirlash ishlarini bajarish
		7.Kon lahimlarining tomi va yon tomonlarida qo'lda yoki burg'ilash/zarb bolg'alari yordamida uzib tushirish ishlarini bajarish
		8.Shpurlar va qayta burg'ilash teshiklarini qo'lda burg'ilash
		9.Tiqinlarni tayyorlash va burg'ilangan teshiklarga belgilangan texnologiya asosida qoqish
		10.Tozalash va tayyorlash zaboylaridan plast va ekspluatatsion namunalari olish
		11.Portlatuvchi nazorati ostida portlovchi moddalarni portlatish joylariga yetkazib berishda ishtirok etish
		12.Quduqlar, shpurlar va mina kameralarini zaryadlash jarayonida yordamchi ishlarni bajarish
		13.Portlatish ishlari bajariladigan joyda portlovchi materiallarni belgilangan tartibda qo'riqlash
	E1.03.3 - Yer osti texnologik uskunalar va mexanizmlariga texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshirish	

		14.Ag'dargich orqali kon massasini ruda-oqizgich, bunker yoki konteynerlarga tushirish
		15.Vagonetkarni kattaqutilarga o'rnatish va ishonchli mahkamlash
		16.Kattaqutini to'g'ri va xavfsiz yuklash hamda tushirish jarayonida stvolchiga yordam berish
		17.Vagonetkarni kattaqutidan qabul qilish va qayta tergich yordamida terish
		18.Lebedka arqoniga vagonetkarni ulash
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Yer osti texnologik uskunalari va mexanizmlarining tashqi holatini aniqlay olish va baholash
		Asbob-uskunalardan foydalanib oddiy texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajara olish
		Mexanizmlarni tozalash, moylash va mahkamlash ishlarini to'g'ri bajarish
		Oddiy nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy harakatlarni bajarish
		Individual himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish
		Xavfli holatlarni aniqlash va xavfsiz ishlash usullarini qo'llash
		Texnik xizmat ko'rsatish jarayonida hujjatlashtirish va og'zaki axborot berish
		<b>Bilimlar:</b>
		Yer osti texnologik uskunalari va mexanizmlarining tuzilishi va ishlash prinsiplari
		Texnik xizmat ko'rsatishning turlari va ketma-ketligi
		Mexanik, elektr, pnevmatik va gidravlik tizimlarning asosiy elementlari
		Mehnat muhofazasi, sanoat xavfsizligi va yong'in xavfsizligi bo'yicha me'yoriy talablar
		Shaxta sharoitida ishlashga xos bo'lgan xavf omillari
		Moylash materiallari va ularni qo'llash qoidalari
		Texnik nosozliklar belgilarini aniqlash asoslari
		Yer osti texnologik uskunalari va mexanizmlarining tuzilishi va ishlash prinsiplari
		Texnik xizmat ko'rsatishning turlari va ketma-ketligi
		Mexanik, elektr, pnevmatik va gidravlik tizimlarning asosiy elementlari
		Mehnat muhofazasi, sanoat xavfsizligi va yong'in xavfsizligi bo'yicha me'yoriy talablar
		Shaxta sharoitida ishlashga xos bo'lgan xavf omillari
		Moylash materiallari va ularni qo'llash qoidalari
		Texnik nosozliklar belgilarini aniqlash asoslari
		Yer osti texnologik uskunalari va mexanizmlarining tuzilishi va ishlash prinsiplari
		Texnik xizmat ko'rsatishning turlari va ketma-ketligi
		Mexanik, elektr, pnevmatik va gidravlik tizimlarning asosiy elementlari
		Mehnat muhofazasi, sanoat xavfsizligi va yong'in xavfsizligi bo'yicha me'yoriy talablar.

		<p>Shaxta sharoitida ishlashga xos bo'lgan xavf omillari</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ish joyini qazib olishga tayyorlash bo'yicha topshiriqlarni mustaqil ravishda tushunadi va bajaradi</li> <li>2. Kon yo'llari va ish joylarida tayyorlov ishlarini belgilangan texnologik ketma-ketlikda amalga oshiradi</li> <li>3. Mustahkamlash elementlarini o'rnatishda texnik talablar asosida harakat qiladi</li> <li>4. Ish jarayonida xavf omillarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish choralari ko'radi</li> <li>5. Ish joyining texnik va sanitariya holatini mustaqil baholaydi</li> <li>6. Kichik texnologik nosozliklarni aniqlaydi va o'z vakolati doirasida bartaraf etadi</li> <li>7. Aniqlangan muammolar bo'yicha yuqori malakali xodimga yoki rahbarga axborot beradi</li> <li>8. Ish joyida xavfsiz mehnat sharoitining ta'minlanishi uchun javobgar</li> <li>9. Individual himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish va ularning saqlanishi uchun</li> <li>10. Ish jarayonida mehnat muhofazasi, sanoat xavfsizligi va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi uchun mas'ul</li> <li>11. O'z vakolati doirasida bajarilgan ishlarning natijasi va sifati uchun javobgar</li> <li>12. Xavfli holatlarni yashirmasdan o'z vaqtida xabar berish uchun javobgar</li> <li>13. Texnologik intizom va ishlab chiqarish tartibiga rioya etilishi uchun javobgar</li> </ol>
<p>E2.3 - Foydali qazilmalarni tozalash chuqurida qazib olish hamda qirqma lahimlarni texnologik talablarga muvofiq o'tkazish bo'yicha maxsus qazish ishlarini bajarish</p>	<p>E2.01.3 - Qirqma lahimlar va tozalash chuqurlarida texnologik jarayonlar uchun zarur ish joyini shakllantirish</p>	<p><b>Mehnat harakatlari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ish joyini texnologik hujjatlar va kon-reja chizmalariga muvofiq aniqlash</li> <li>2. Qirqma lahim va tozalash chuqurlarida ish maydonini tozalash va tayyorlash</li> <li>3. Zaboy va ish joyida tog' jinslarining barqarorligini vizual tekshirish</li> <li>4. Osilib turgan va bo'sh jinslarni qo'lda yoki mexanizmlar yordamida tushirish</li> <li>5. Vaqtinchalik va doimiy mustahkamlash elementlarini o'rnatishda qatnashish</li> <li>6. Ish joyini shamollatish holatini tekshirish va shamollatish quvurlarini joylashtirish</li> <li>7. Yoritish moslamalarini o'rnatish va ish holatini nazorat qilish</li> <li>8. Texnologik uskunalarni, asboblarni va materiallarni ish joyiga yetkazish</li> <li>9. Ish joyida suv chiqishini aniqlash va drenaj choralari ko'rishda qatnashish</li> <li>10. Portlatish, qazish yoki tozalash ishlari uchun ish joyini texnologik jihatdan tayyorlash</li> <li>11. Xavfli hududlarni belgilash va ogohlantiruvchi belgilarni o'rnatish</li> </ol>

		12. Ish jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini ta'minlash
		13. Ish yakunida ish joyini tartibga keltirish va keyingi jarayonga tayyorlash
		14. Ish joyini texnologik hujjatlar va kon-reja chizmalariga muvofiq aniqlash
		15. Qirqma lahim va tozalash chuqurlarida ish maydonini tozalash va tayyorlash
		16. Zaboy va ish joyida tog' jinslarining barqarorligini vizual tekshirish
		17. Osilib turgan va bo'sh jinslarni qo'lda yoki mexanizmlar yordamida tushirish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Qirqma lahim va tozalash chuqurlarida ish joyini to'g'ri tashkil etish
		Tog' jinslarining xavfli holatini aniqlay olish va xavfsizlantirish
		Qo'lda va mexanizmlar yordamida ish joyini tayyorlay olish
		Mustahkamlash elementlarini o'rnatishda yordamchi ishlarni bajarish
		Shamollatish va yoritish tizimlaridan to'g'ri foydalanish
		Texnologik asbob-uskunalarini ishga tayyorlash va joylashtirish
		Xavfsiz ishlash hududini aniqlay olish va belgilash
		Ish joyida yuzaga keladigan oddiy nosozlik va muammolarni aniqlay olish
		Smena davomida berilgan topshiriqlarni ketma-ket va sifatli bajara olish
		Jamoa bilan kelishilgan holda ishlash va ko'rsatmalarga rioya qilish
		<b>Bilimlar:</b>
		Qirqma lahimlar va tozalash chuqurlarining vazifasi va texnologik ahamiyati
		Yer osti kon ishlarida ish joyini tashkil etish talablari
		Tog' jinslarining asosiy turlari va ularning barqarorlik xususiyatlari
		Vaqtinchalik va doimiy mustahkamlash turlari va ularning vazifasi
		Shamollatish va yoritish tizimlarining ish prinsipi
		Yer osti ishlarida qo'llaniladigan asbob-uskunalar va ularning vazifasi
		Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi qoidalari
		Xavfli zonalar va ularni belgilash tartibi
		Ish joyida favqulodda holatlarda harakat qilish qoidalari
		Smena davomida ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

<p>E2.02.3 - Asosiy qazish jarayonlarini texnologik xarita asosida amalga oshirish</p>	<p><b>Mehnat harakatlari:</b></p>
	1. Amaldagi talablar va ish sharoitlariga muvofiq ish kiyimlari hamda individual himoya vositalarini aniqlash, qo'llash va saqlash
	2. Smena qabullash-topshirish jarayonida tozalash chuqurlari va qirqma lahimlarni o'tkazish bilan bog'liq yordamchi ishlar bo'yicha ishlab chiqarish vazifasi to'g'risida ma'lumot olish va topshirish
	3. Texnologik xarita talablariga muvofiq karetk va burg'ilash qurilmalari yordamida shpur va quduqlarni burg'ilash
	4. Kon massasini qazish jarayonida lahimlarni barcha turdagi kreplar bilan mahkamlash ishlarini bajarish
	5. Mexanizatsiyalashgan krep seksiyalarini siljitishda gidravlik tizimni boshqarishda ishtirok etish
	6. Mexanizatsiyalashgan kreplar seksiyalari, konveyer yo'llari, mashinalar va ish joylarini tozalash
	7. To'lg'azish mashinalari, o'ziyurar konchilik uskunalari va konveyerlarga texnik xizmat ko'rsatish hamda ularni boshqarishda qatnashish
	8. Kon kombaynlari, tarashlash qurilmalari va mexanizatsiyalashgan ko'chma kreplarni boshqarishda yordam berish
	9. Vibromexanizmlarga va zaboy mexanizmlariga texnik xizmat ko'rsatish
	10. Kommunikatsiya liniyalarining holatini nazorat qilish
	11. Uskunalardagi kichik nosozliklarni aniqlash, bartaraf etish yoki ularni bartaraf etishda ishtirok etish
	12. Nogabarit kon bo'laklarini burg'ilab maydalash ishlarini bajarish
	13. Uskunalar va kommunikatsiya liniyalarini montaj qilish uchun krep shtangasi ostidan shpurlarni burg'ilash
	<p><b>Ko'nikmalar:</b></p>
	Texnologik xaritani o'qish va unga muvofiq ishlarni bajara olish
	Burg'ilash qurilmalari va elektr asboblaridan xavfsiz foydalanish
	Turli xil krep turlarini o'rnata olish va mustahkamlash usullarini qo'llay olish
	Mexanizatsiyalashgan krep va gidravlik tizimlar bilan ishlay olish
	Kon kombaynlari va yordamchi mexanizmlarning ish rejimlarini tushunish
Vibromexanizmlarning ishlash tamoyiliga muvofiq xizmat ko'rsatish	
Nosozliklarni belgilari bo'yicha aniqlay olish va xavfsiz choralar ko'rish	

		Nogabarit kon massasini texnologik talablar asosida maydalash
		Ish joyida mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish
		<b>Bilimlar:</b>
		Asosiy qazish jarayonlarining texnologik sxemalari va xaritalari
		Qirqma lahimlar va tozalash chuqurlarini o'tkazish texnologiyasi
		Burg'ilash usullari, shpur va quduqlar turlari
		Kon massasi xususiyatlari va nogabarit bo'laklar bilan ishlash usullari
		Mexanizatsiyalashgan kreplar va gidravlik tizimlarning tuzilishi
		Kon kombaynlari, vibromexanizmlar va konveyerlarning ishlash prinsipi
		Uskunalar nosozliklarining asosiy sabablari va ularni bartaraf etish usullari
		Mehnat muhofazasi, sanoat xavfsizligi va portlashdan himoyalash qoidalariga rioya qilish
		Smenani qabul qilish-topshirish tartibi va ishlab chiqarish intizomi talablari
	<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	1. Ish kiyimi va individual himoya vositalarini to'g'ri tanlaydi, qo'llaydi va saqlaydi
		2. Qirqma lahim va tozalash chuquridagi ish joyini texnologik talablar asosida tashkil qiladi
		3. Qirqma lahimlarni va tozalash chuqurlarini texnologik xaritalar bo'yicha burg'ulaydi va mahkamlaydi
		4. Foydali qazilmalarni zarur qirqish va tozalash ishlarini bajaradi
		5. Mexanizatsiyalashgan va qo'lda ishlash uskunalaridan samarali foydalanadi
		6. Ish jarayonida yuzaga keladigan kichik nosozliklarni aniqlaydi va bartaraf etadi
		7. Ishning sifatini va texnologik talablar bilan mosligini nazorat qiladi
		8. Ish joyida xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishini ta'minlashga mas'ul
		9. Foydali qazilmalarni Burg'ilash va tozalash jarayonida portlash, tushib qolish yoki uskunalar nosozligi xavfini oldini olish bo'yicha mas'ul
		10. Foydali qazilmalarni qazib olish jarayonida sifat va samaradorlikni ta'minlashga mas'ul
		11. Smena boshlig'iga yoki texnologik nazoratchiga ish jarayoni va natijalari to'g'risida ma'lumotni yetkazish bo'yicha mas'ul
		12. Nosozliklar, xavf va favqulodda vaziyatlarni darhol xabar qilishga mas'ul

<p><b>Texnik va/yoki texnologik talab</b></p>	<p>Kon ishlarini belgilangan texnologik xaritalar va ishlab chiqarish rejasiga muvofiq bajarishi lozim;  Qazib olish, qirqma lahim o'tkazish va tozalash chuqurlarida ishlarni ketma-ketlik asosida bajarishi shart;  Burg'ilash–portlatish ishlariga tayyorgarlik va yordamchi operatsiyalarni texnologik tartibda bajarishi lozim;  Kon massasini qazish, yuklash, tashish va tushirish jarayonlarida texnologik uzviylikni ta'minlashi shart;  Lahimlar va ish joylarini o'z vaqtida mustahkamlashi, krep elementlarini texnologik talablar asosida o'rnatishi lozim;  Kon ishlarida xavfsizlik talablariga muvofiq individual himoya vositalaridan foydalanishi va ish joyini xavfsiz holatda saqlashi shart;  Smena qabul qilish-topshirishda ishlab chiqarish vazifalari, ish joyining holati va xavfli omillar bo'yicha ma'lumot almashishni amalga oshirishi lozim;  Kon uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ishga tayyorlash jarayonida texnologik reglamentlarga rioya qilishi shart;  Favqulodda vaziyatlarda belgilangan texnologik va xavfsizlik choralarini qo'llashi lozim;  Ish jarayonida aniqlangan nosozliklar va texnologik chetlanishlar to'g'risida mas'ul shaxslarga o'z vaqtida xabar berishi shart;  Burg'ilash asboblari va uskunalari: qo'l burg'ilari, elektr-parmalar, pnevmatik va gidravlik burg'ilash bolg'alari, burg'ilash karetkalari va qurilmalari, burg'ilar, shtangalar, koronkalar;  Qazish va tozalash uskunalari: kon kombaynlari, tarashlash va kesish qurilmalari, qo'l mehnati uchun lom, bolg'a, kuraklar, nogabarit bo'laklarni maydalash uchun asboblari;  Mustahkamlash (krep) vositalari: yog'och, metall va temir-beton krep elementlari, mexanizatsiyalashgan ko'chma krep seksiyalari, gidro-tizim va krep boshqaruv elementlari;  Transport va yuklash uskunalari: vagonetkalar, konveyerlar (lentali, zanjirli), lebedkalar, tolkatellar, ag'dargichlar, bunkerlar;  Shaxsiy himoya vositalari: himoya kaskasi, maxsus ish kiyimi va poyabzal, nafas olishni himoyalash vositalari, ko'z va quloqni himoya qiluvchi vositalar, qo'lqoplar va signal jiletleri.</p>
---	---

Kasbning nomi:	Tog'-kon jihozlarini ta'mirlovchi elektrchilangar
Mashg'ulot nomining kodi:	74120
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba ( ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Ishga 18 yoshga to'lgan shaxslar qo'yiladi;</p> <p>O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dastlabki majburiy (ishga kirayotganda) va davriy tibbiy ko'riklardan (tekshiruvlardan), shuningdek navbatdan tashqari tibbiy ko'riklardan (tekshiruvlardan) o'tish;</p> <p>Mehnatni muhofaza qilish talablari bo'yicha o'qitish va bilimlarni tekshirish, sanoat xavfsizligi bo'yicha tayyorgarlik va bilimlarni tekshirishdan o'tish;</p> <p>Mehnat va texnika xavfsizligi talablariga so'zsiz bo'ysunish;</p> <p>Elektr dvigatellar, ishga tushirish apparatlari va boshqaruv tizimlarini ta'mirlash layoqatiga ega bo'lish;</p> <p>Elektr sxemalarini o'qish va ularga muvofiq ishlarni bajarish;</p> <p>Elektr nosozliklarini aniqlash va bartaraf etish qobiliyatiga ega bo'lish;</p> <p>Past va o'rta kuchlanishli elektr tarmoqlarida ishlash ko'nikmasiga ega bo'lish;</p> <p>O'lchov asboblari (multimetr, megommetr va boshqalar)dan foydalanish layoqatiga ega bo'lish;</p> <p>Elektr xavfsizligi, yerga ulash va himoya avtomatikasi qoidalarini qo'llay olish;</p> <p>Jihozlarga rejali va joriy texnik xizmat ko'rsatish layoqatiga ega bo'lish;</p> <p>Texnik hujjatlar va yo'riqnomalarga muvofiq ishlash qobiliyatiga ega bo'lish;</p> <p>Yuqori darajadagi mas'uliyat va intizomlilik;</p> <p>Diqqatlilik va aniqlik bilan ishlash qobiliyati;</p> <p>Xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish odati;</p> <p>Favqulodda vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qila olish;</p> <p>Mustaqil va jamoa bilan hamkorlikda ishlay olish;</p> <p>Texnik tafakkur va muammoli vaziyatlarni tahlil qila olish;</p> <p>O'z ustida doimiy ishlash va bilimlarini yangilashga intilish;</p> <p>Stressga chidamlilik va jismoniy bardoshlilik;</p> <p>Muloqot madaniyati va xizmat intizomiga rioya qilish</p>
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim; o'rta maxsus ta'lim;

Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3-razryadli burg'ilash va geotexnologik uskunalarni ta'mirlash bo'yicha navbatchi va elektr chilangar (chilangar)	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	<b>TMR bo'yicha malaka darajasi:</b>	<b>Kasbning nomi:</b>
	2	Yuzada ishlovchi stvolchi
	3	Stvolchi (yerosti)
		Elektr-gaz payvandchi
	3	O'tuvchi (Proxodchik)
	3	Skreper chig'ir mashinisti
	3	Elektrovoz mashinisti (yer osti)
	3	Ortish-yetkazish mashinasi mashinisti
	3	Stvolni tekshirish bo'yicha mustahkam-lovchi
3	Ko'tarish qurilmasi mashinisti	
<b>Mehnat funksiyalarining tavsifi</b>		
<b>Kodi va nomi</b>	<b>Mehnat vazifalari</b>	
F1.3 - Tog'-kon jihozlarining elektr qismlarini tekshirish, ta'mirlash va nazoratini olib borish	F1.01.3 - Elektr jihozlarini tekshirish va diagnostika qilish	<b>O'qitish natijalari</b>
		<b>Mehnat harakatlari:</b>
		1. Tog'-kon jihozlarining elektr qismlarini (kabel liniyalari, ulanishlar, boshqaruv va himoya apparatlari) vizual ko'zdan kechirish
		2. Elektr jihozlarining ishlash holatini o'lchov asboblari yordamida tekshirish
		3. Elektr zanjirlarida uzilish, qisqa tutashuv, kuchlanish va tok qiymatlaridagi og'ishlarni aniqlash
		4. Jihozlarning texnik holatini baholash va aniqlangan nosozliklarni belgilash
		5. Diagnostika natijalarini belgilangan tartibda qayd etish va mas'ul shaxsga ma'lum qilish
		6. Tekshiruv jarayonida mehnat va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish
		<b>Ko'nikmalar:</b>
		Elektr jihozlarini tekshirishda vizual va instrumental diagnostika usullarini qo'llay olish
		Voltmeter, ampermetr, ohmmeter va shunga o'xshash o'lchov asboblardan to'g'ri foydalanish
		Nosozlik belgilari asosida elektr jihozlarining texnik holatini aniqlay olish
		Diagnostika jarayonida xavfsiz ish usullarini qo'llay olish
Tekshiruv natijalarini hujjatlashtirish va keyingi ta'mirlash ishlariga tayyorlash		

		<b>Bilimlar:</b>
		Tog'-kon jihozlarning elektr qismlari va ularning ishlash prinsiplari
Elektr zanjirlari, ulanish sxemalari va ularning asosiy elementlari		
Elektr jihozlarda uchraydigan asosiy nosozliklar va ularning belgilarini aniqlash usullari		
Elektr o'lchov asboblarining tuzilishi va foydalanish qoidalari		
Elektr xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha amaldagi me'yoriy talablar		
Diagnostika natijalarini rasmiylashtirish tartibi		
F1.02.3 - Elektr jihozlarni ta'mirlash va ishlashini nazorat qilish	<b>Mehnat harakatlari:</b>	
	1. Aniqlangan nosozliklar bo'yicha elektr jihozlarning alohida elementlarini ta'mirlash yoki almashtirish ishlarini bajarish	
	2. Elektr zanjirlari, ulanishlar va kontaktlarning ishga yaroqliligini tiklash	
	3. Ta'mirdan so'ng elektr jihozlarni ishga tushirishdan oldin tekshirish va sinovdan o'tkazish	
	4. Jihozlarning ishlash jarayonida kuchlanish, tok va boshqa asosiy ko'rsatkichlarni nazorat qilish	
	5. Ta'mirlash va nazorat natijalarini belgilangan tartibda qayd etish	
	6. Barcha ishlarni mehnat va elektr xavfsizligi qoidalariga muvofiq bajarish	
	<b>Ko'nikmalar:</b>	
	Elektr jihozlarning mayda va o'rtacha darajadagi nosozliklarini bartaraf etish	
	Elektr asbob-uskunalarini va qo'l asboblaridan xavfsiz foydalanish	
	Ta'mirdan keyin jihozlarning barqaror ishlashini tekshirish va nazorat qilish	
	Ish jarayonida xavfsizlik choralarini to'liq qo'llash	
	Ta'mirlash va nazorat natijalarini hujjatlashtirish	
	<b>Bilimlar:</b>	
	Tog'-kon jihozlarning elektr qismlari va ularning ishlash prinsiplari	
	Elektr zanjirlarining tuzilishi, ulanish sxemalari va ishlash tartibi	
	Elektr jihozlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan usullar va vositalar	
Elektr jihozlarning ish rejimlari va nazorat ko'rsatkichlari		
Mehnatni muhofaza qilish va elektr xavfsizligi bo'yicha amaldagi talablar		
Ta'mirlash va nazorat ishlarini rasmiylashtirish tartibi		

	<b>Mas'uliyat va mustaqillik:</b>	<p>1. Tog'-kon jihozlarning elektr qismlarini belgilangan topshiriqlar va texnik hujjatlar asosida tekshirish va ta'mirlash ishlarining sifatli bajarilishi uchun javobgar</p> <p>2. Elektr jihozlarda aniqlangan nosozliklar va ularning belgilarini o'z vaqtida qayd etish hamda mas'ul mutaxassisga xabar berish uchun javobgarlik</p> <p>3. Elektr jihozlarning ishlashini nazorat qilish jarayonida mehnat va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi uchun javobgar</p> <p>4. Ta'mirlash va nazorat ishlari natijalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish uchun mas'ul</p>
<b>Texnik va/yoki texnologik talab:</b>		<p>Tog'-kon ishlab chiqarishida qo'llaniladigan Burg'ilash dastgohlari, nasoslar, air-lift qurilmalari, kompressorlar, ichki yonuv dvigatellari va yordamchi mexanizmlarning elektr va mexanik qismlari bilan ishlashga tayyor bo'lishi lozim;</p> <p>Quvvati 100 kVt gacha va undan ortiq bo'lgan elektr mashinalari, elektr stansiyalari va elektr apparatlarining elektr jihozlari bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'lishi zarur;</p> <p>Kuchlanishi 10 kV gacha bo'lgan elektr tarmoqlari, taqsimlash qurilmalari, kabel va havo liniyalarining elektr jihozlarini ko'zdan kechirish va joriy ta'mirlash ishlarini bajarishi lozim;</p> <p>Elektr dvigatellar, boshqaruv va himoya apparatlari, ishga tushirish qurilmalari, signalizatsiya va avtomatika elementlari bilan ishlash talab etiladi;</p> <p>Nazorat-o'lchov asboblari, megometrlar, sinov qurilmalari va elektr chilangarlik asboblaridan foydalanish talab qilinadi;</p> <p>Ko'tarish-tashish mexanizmlari va yuk ko'tarish moslamalaridan texnika xavfsizligi talablariga muvofiq foydalanish zarur;</p> <p>Tog'-kon jihozlarini o'rnatish, demontaj qilish, sozlash va ta'mirlash jarayonlarini belgilangan texnologik ketma-ketlikda bajarishi lozim;</p> <p>Elektr jihozlaridagi nosozliklarni aniqlash, sabablarini bartaraf etish va ishga layoqatini tiklash texnologiyalarini qo'llashi zarur;</p> <p>Uzel va detallarni tozalash, yuvish, moylash hamda agressiv muhitlardan neytrallash texnologiyalarini amalga oshirishi lozim;</p> <p>Elektr kabellarini ta'mirlash, fazalash, ulash, izolyatsiyasini tiklash va himoyalash texnologiyalarini qo'llashi talab etiladi;</p> <p>Elektr uskunalarning izolyatsiya holatini, yuklamalarini va ish rejimlarini nazorat qilish texnologiyalarini amalga oshirishi lozim;</p>

	<p>Chizmalar, sxemalar va texnik hujjatlar asosida montaj va ta'mirlash ishlarini bajarishi zarur;</p> <p>Ta'mirlash jarayonida ehtiyot qismlar va materiallarni to'g'ri tanlash, o'rnatish va sifat nazoratini amalga oshirishi lozim;</p> <p>Ta'mirlashdan so'ng jihozlarni sinovdan o'tkazish, sozlash va ishga tushirish jarayonlarini texnologik talablarga muvofiq bajarishi lozim;</p> <p>Elektr xavfsizligi, sanoat xavfsizligi, yong'in va ekologik xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilishi lozim;</p> <p>Elektr jihozlari bilan ishlashda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishi shart;</p> <p>Yuqori xavfli ishlarni faqat belgilangan tartibda va mas'ul shaxslar nazorati ostida bajarishi lozim;</p> <p>Elektrchilangarlik asboblari: izolyatsiyalangan otvyortkalar to'plami (tekis va krest shaklli), izolyatsiyalangan kalitlar (ochiq, yopiq, kombinatsiyalangan), passaj, qisqich, yon kesgich (bokorez), kabel yechish va izolyatsiya ochish moslamalari, elektr montaj pichoqlari, kabel uchlarini siqish (presslash) qisqichlari;</p> <p>Mexanik va chilangarlik asboblari: gayka va boltlar uchun kalitlar to'plami, bolg'a, kiritkich (zubilo), kaltak, egovlar (turli aniqlik va shaklda), metchik va plashkalar (rezba qirqish uchun), slesarlik qisqichlari (tiski), o'lchov lineykalari, shtangensirkul, mikrometr;</p> <p>Elektr jihozlari va montaj qurilmalari: elektr dvigatellarni yechish va o'rnatish moslamalari, elektr payvandlash apparati (elektrgazpayvandchi bilan birga ishlashda), kabel ulash va ta'mirlash moslamalari, elektr taqsimlash shkaflari va stendlari, ishga tushirish va himoya apparatlari (avtomatlar, magnit ishga tushirgichlar);</p> <p>Shaxsiy himoya vositalari: dielektrik qo'lqoplar va poyabzal, himoya ko'zoynaklari va niqoblar, kaska va himoya kiyimlari, dielektrik gilamchalar, nafas olishni himoyalovchi vositalar (zarur hollarda).</p>
--	---

## V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

### 5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Tog'-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 2026-yil 6-fevraldagi 2-son bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0005-son xulosa, 26.01.2026
3.	Kasbiy standart versiyasi va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0-talqin, 26.01.2026
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	26.01.2031

### 5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot

#### **“Navoiy-kon metallurgiyakombinati” aksiyadorlik jamiyati Janubiy kon boshqarmasi**

(tashkilot nomi)

**Direktor**

**Yuldashev Toliboy Narbayevich**

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

### 5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxonalar)lar to'g'risida ma'lumot

T/r	Xodim to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	“Navoiy-kon metallurgiya kombinati” Janubiy kon boshqarmasi, Mehnatni tashkil etish va ish haqi bo'limi boshlig'i	Boboqandov Xafiz Boboqand o'g'li
2	“Navoiy-kon metallurgiya kombinati” Janubiy kon boshqarmasi, Bosh energetigi	Avazov Uyg'un Eronboyevich
3	“Navoiy-kon metallurgiya kombinati” Janubiy kon boshqarmasi, Bosh marksheyderi	Xamrayev Abdunazar Xurramovich
4	“Navoiy-kon metallurgiya kombinati” Janubiy kon boshqarmasi, Bosh geologi	Gizzatov Alisher Irgashevich
5	“Navoiy-kon metallurgiya kombinati” Janubiy kon boshqarmasi, Mehnatni tashkil etish va me'yorlash bo'yicha muhandisi	Yuldashov Raxim Umarovich



**TOG‘-KON SANOATI, GEOLOGIYA VA MINERAL  
RESURSLAR SOHALARIDA KASBIY MALAKALARNI  
RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA TARMOQ KENGASHI**

**KASBIY STANDART**  
**KON SANOATIDA YORDAMCHI**  
**ISHCHILAR**